OILA VA YOSH OILALARNING TARBIYADAGI IJTIMOIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.

Xudoynazarov Sh. A., GDPI o‘qituvchisi.
Begmatova Q.X, Guliston tumani 26-maktab direktori

Annotatsiya. Bu maqolada oila ma’naviyati, oila a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro ma’naviy munosabatlar, oilada bola tarbiyasi, axloqiga asoslangan munosabatlarda yosh oilalarni qo‘llab quvatlash, oila shakillanishida ota – onaning psixologik tas’sirlari haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar. Oila, tarbiya psixologiyasi, namuna, nikoh.

Abstract. This article tells about the spiritual relations between family members, raising children in the family, raising young families in moral relations, the psychological influence of parents on family formation.

Keywords. Family, educational psychology, model, marriage.

Yoshlarni oilaviy xayotga tayyorlashda ularning oilada olgan tarbiyalari, odobaxloqlari katta ahamiyat kasb etadi. Kelajakda mustaqil oila quradigan yoshlar tarbiyasida ota-onaning ma’suliyati cheksizdir. O‘zbek xalqida bir ajoyib gap bor “qush inida ko‘rganini qiladi” bundan ko‘rinib turibdiki, yoshlarning oilasi ularning katta bo‘lgan muxutiga bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining “Oila” deb nomlangan XIV bobining 63, 64, 65, 66 moddalarida oila jamiyatning asosiy negizi, bo‘g‘ini ekanligi huquqiy mustahkamlangan. Bu normalar jamiyatimiz tarixiy an’analari, qadriyatlarini qomusimizda mustahkamlanishini kafolatlaydi. Chunki millatimiz tarixiy an’ana, odatlari ya’ni ma’naviyatimiz asosiy qoidalari aynan konstitutsiyamizda yoritilgan. Mamalakatimiz tub ma’naviyati, ota-onaning bola tarbiyasidagi mas’uliyati, ota-ona keksaygach, ularga moddiy va ma’naviy tom mondan g‘amxo‘rlik qilish har bir farzandning burchi ekanligi kafolatlab qo‘yilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Rus sotsiologlarining (S.I.Goloda, A.A.Avdeev va boshqalar) fikricha, bizda oilaning parallel ravishda bir necha xil turlari mavjud: patriarxal, yoki an’anaviy, bolalar markazli yoki zamonaviy, oilaviy yoki postmodern. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Rossiyani Evropa mamlakatlari bilan solishtirish mumkin, bu yerda, chet ellik tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, bugungi oila “yaxshi do‘stlarning nikohi” bo‘lib, ular birgalikda hayotni tartibga solish va bolalar tarbiyasi uchun birlashgan. Bu modelda bola ko‘proq oila qurish maqsadi sifatida emas, balki huquq va majburiyatlari bilan sherik sifatida qabul qilinadi. Bu holda nikohning buzilishi oila taraqqiyotining faqat bir bosqichidir. nikohda ikkita “men” bitta mavjudotga aylanadi va “biz”ga aylanamiz. Bu individual ehtiyojlarning kuchli bostirilishiga olib kelganini tasavvur qilish mumkin. Ko‘pincha

er va xotin hech qachon individual bo‘lmagan holda ota va onaning vazifalarini bajargan. Nikohning muqaddasligi haqidagi diniy tuyg‘u bo‘lganganda va individual bo‘lish istagi paydo bo‘lganda, ajralish shunday qullik zanjirlaridan qutulishning bir usuli bo‘lib ko‘rinadi.

Bu yosh oilalarining hayotda bir – birlarini tushinib yashab ketishlari uchun kerakli bo‘lgan davr sifatida qaraladi. Tarixiy ma’lumotlarning guvohlik berishicha, oilaviy munosabatlar madaniyati sharq xalqlarida juda qadimdan rivojlangan ijtimoiy voqelik ekanligini ko‘rsatadi. 40 yillik faoliyati davomida doktor Bouen yangi nazariyani hamda uning nazariyasiga asoslangan yangi psixoterapiya usulini ishlab chiqdi. Bouen nazariyasining uni an’anaviy psixoterapiya nazariyasidan ajratib turadigan asosiy asosi: oila - bu hissiy birlik va oila emotsional birlikning bir a’zosining hissiy faoliyatidagi har qanday o‘zgarish taxminiy va avtomatik ravishda hissiy faoliyatdagi o‘zgarishlar bilan qoplanadi. Sharq mutafakkirlari fikrlariga e’tibor beradigan bo‘lsak, oilani doimiy tarbiya, oiladagi ma’naviy qadriyarlarni saqlash bilan bog‘liq xolda yoritishgan o‘z asarlarida.

Ko‘plab olimlarning ta’kidlashlaricha, yosh oilaning mustahkamlanib, oyoqqa turib ketishi, turli maishiy muammolarni o‘zi mustaqil xal qilishi uchun zarur bo‘lgan muddat aslida turmush qurgan ikki shaxsning bir-biriga bo‘lgan samimiy munosabatiga, oila va uning atrofidagi turli qadriyatlarga nisbatan uyg‘un qarashlariga, ota-ona oilasida ibrat sifatida ko‘rgan-kechirganlarini uchun o‘z oilasida qo‘llay bilish mahoratiga bevosita bog‘liqdir. Lekin baribir har bir oila aynan yoshlik davridagi qiyinchiliklarni boshdan kechiradiki, bu muammolar quyidagi holatlarga bog‘liq tarzda namoyon bo‘ladi: oilaviy hayotni bir maromda kechishini ta’minlash, ishlash, o‘qish yoki boshqa masalalarni xal qilish uchun vaqtning yetishmasligi; vaqtni yaxshi o‘tkazish, ko‘ngilxushliklarning cheklanganligi; yangi sharoitda erkakning ham ayolning jismonan toliqishi, asablarning charchashi; iqtisodiy qiyinchiliklar.

Yosh oilalarda munosabat tizimi asosiy rol o‘ynaydi bunda ikki yoshning bir - birini tushunishi evaziga oiladagi tashqi ta’sirlarning yuzaga kelishining oldini olinadi. Oilaviy kelishmovchiliklarning kelib chiqish sabablari va omillari degan savolimizga qizlarimiz oilaviy munosabatlarning sovuqligi oilada iqtisodiy etishmovchiliklar kelinlarni qaynonalarning tushunishni istamasliklari oilada ma’naviy muhitning yo‘qligini aytgan bo‘lsalar yigitlar esa oddiygina qilib barchasiga ayollar aybdor ekanligini aytib o‘tishgan.

Xulosa va tavsiyalar. Kelajak avlodni tarbiyalash va ta’lim berish har bir ota-onaning hayotiy funksiyanal vazifasi bo‘lmog‘i darkor. Hozirgi bizning farzandlarimiz kelajak davomchilaridir oila bugungi olingan tarbiyaning psixsologik xususiyatlari kelajakdagi quriladigan oilaning bosh omili hisoblanadi. Shunday ekan har bir oilada tariyalanayotgan bolaning ota- ona namuna va o‘rnak bo‘lishliligining psixologik tasiri kattadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi (lex.uz)

2.Ш.Тойирова, Бухоро давлат университети Ўзбек оилаларда эгизакфарзандларни тарбиялашдаги ўзига хос психологик муаммолар Научно-